



ASAB KASALLIKLARINI XALQ TABOBATI YO'LI BILAN DAVOLASH SAMARADORLIGI

Isaqova Oydinoy Alisher qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson organizmida ko'p uchraydigan asab tizimi faoliyati buzilishi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni tabiiy yo'l bilan davolash usullari va unda ishlatiladigan o'simlik va giyohlarning yig'ib olinish va dorivorlik xususiyatlari bilan tanishtirib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Arslonquyruq (herba leonuri), Sallagul (peoniae), Isiriq (herba pegani harmalae), garmalin, alkaloid, garmin, (banisterin), garmalol, peganin (vazitsin), pegamin, peganol, dezoksipeganin, peganidin.*

Inson organizmida ko'plab uchraydigan kasalliklarning bir qator turlari asab tizimining ish faoliyatiga bog'liq. Inson tanasi charchaganda, uyqusizlik holati ro'y berganda hamda asab tizimiga salbiy ta'sirlar o'tkazilganda bir qator kasalliklar arteroskleroz, aql faoliyatining yomonlashishi, ishtaha buzilishi, tez-tez toliqish, shamollash va boshqalar kelib chiqadi. Keng omma hayotida asab kasalliklarining avj olishini kamaytirish, uni samarali davolash bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Turli dori vositalarini bilib-bilmay, pala-partish qabul qilish, shuningdek ekologiyaning ifloslanishi inson asab sistemasiga ham salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Qabul qilinayotgan har bir dori vositalarining tarkibini bilish va kasallikni davolashda to'g'ri foydalana olish, samarali natijalarga erishishga yordam beradi. Ularning kimyoviy tarkibini o'rganish va shunga ko'ra sinflash bu masalani yanada oydinlashuvini ta'minlaydi.

Bugungi kunda ilm fan va sog'liqni saqlash tizimiga katta e'tibor berilmoqda. Afsuski, shunday bo'lsa ham, asab kasalliklari bilan og'rigan bemorlar ko'plab uchrab turibdi. Bu kasallik bilan nafaqat katta yoshdagilar, balki, bolalar ham kasallanmoqda. Kasallikning asosiy sabablari: ekologiyaning salbiy tomonga o'zgarishi, ko'p siqilish, turli dori vositalarini pala partish, ko'p miqdorda, yoki og'ir kechuvchi kasalliklarda qabul qilish, gigiyena qoidalariga amal qilmaslikdan iborat ekanligi aniqlangan. Yuqoridagi omillar



ta`sirida organizm Immun sistemasida yetishmovchiliklar kelib chiqadi va kasallikning avj olishi uchun qulay sharoit tug`iladi. Bunday bo`lmasligi uchun kasallikning oldini olish, ortiqcha siqilmaslik, doimo gigiyena qoidalariga, sog`lom turmush tarziga amal qilish va ko`proq tabiiy vositalardan foydalanish zarur.

Asabi yaxshi odamni salomatligi yaxshi, irodasi kuchli kishi deb aytishadi. Zero, asab ichki organlar faoliyatiga katta ta`sir ko`rsatadi. Ma`lumki, bosh miya faoliyati ichki organlarga ta`sir etib turadi. Ayniqsa, iztirob chekkan, g`amgin kishilar doimo yurak bezovtalanishidan, yurak atrofidagi og`riqdan shikoyat qilishadi. Bir og`iz noo`rin so`z asabi sezgir kishilarga tez ta`sir etib, odam o`zini darhol yomon seza boshlaydi, yuragi bezovta bo`libgina qolmay, qo`l-oyoqlari bo`shashadi, ichi titrab ketadi. Shu bilan birga, ichki organlar faoliyati buziladi, qonda qand miqdori oshib ketadi, og`iz quriydi, darmonsizlik va shunga o`xshab bir qancha o`zgarishlar ro`y beradi. Shuni unutmaslik kerakki, kishi tashqi muhitdagi yomon ta`sirga qanchalik sezgir bo`lsa, organizmning yuqumli kasalliklarga nisbatan chidami shunchalik pasayib ketadi. Natijada kishi har xil kasalliklarga tez chalinadigan bo`lib qoladi. Ba`zan og`ir stress, ob-havo, quyosh nuri, issiqlik, sovuqlik har xil ranglar shovqin-suron, musiqa va hokazolar ham inson asabiga salbiy ta`sir etadi.

Xalq tabobati va ilmiy tibbiyotda asab tizimi bilan bog`liq bo`lgan va boshqa turli kasalliklarning oldini olishda hamda davolashda diyorimizda o`sayotgan turli xil tabiiy dorivor o`simliklar, meva-sabzavotlar va oziq ovqat mahsulotlarining o`rni katta.

Arslonquyruq yer ustki qismi (herba leonuri) — o`simligining kimyoviy tarkibi yetarlicha o`rganilganicha yo`q. O`simlik tarkibida flavonoidlar, 2,01-9% gacha oshlovchi moddalar, 0,035- 0,4 % gacha alkaloidlar, 0,05 % efir moylari, p-kumar kislota, vitamin C, karotin, iridoidlar, saponinlar, qand, achchiq modda va hokazolar borligi aniqlangan.

Mahsulotning flavonoidlar yig`indisidan rutin, kversitrin, giperozid, kversetinni 7-glyukozidi, kversetin va kvinkvelozid, alkaloidlar yig`indisidan leonurinin alkaloidi (mevasidan) va 0,4 % gacha staxidrin ajratib olingan. Arslonquyruqning dorivor preparatlari tinchlantiruvchi vosita sifatida (valeriana preparatlaridek) gipertoniya, nerv qo`zg`alishi va ba`zi yurak kasalliklari (yurak nevrozi, kardioskleroz) ni davolash uchun ishlatiladi. Uning



dorivor preparatlari asosan damlama nastoyka, suyuq ekstrakt ko`rinishida bo`lib, tinchlantiruvchi choy va yig`malar tarkibiga kiradi.

Sallagul (peoniae)— o`simligining ildizpoyasi va ildizi hamda yer ustki qismi dorivor xususiyatga ega. Uning tarkibida 1,6 % gacha efir moyi, salitsin glikozidi, 78,5 % gacha kraxmal, 10 % gacha qandlar, peonol (oksifenilmetilketon) 1,66-2,6 % iridoidlar, salitsilat va benzonat kislotalar, oz miqdorda saponinlar, alkaloidlar, oshlovchi moddalar va mikroelementlar bo`ladi. Tibbiyotda pion o`simligining dorivor preparati nerv sistemasining funksional buzilishida, nevrasteniya kasalligida va uyqusizlikda tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Pion o`simligi ildiz hamda yer ustki qismining 10 % li nastoykasi nafas olish funksiyasini hamda qon bosimini o`zgartirmasdan markaziy nerv sistemasiga tinchlantiruvchi ta`sir ko`rsatadi. Uning dorivor preparatlari bo`lgan nastoykalari 40% li spirt asosida tayyorlanadi.

Isiriq yer ustki qismi (herba pegani harmalae) — xalq tabobatining noyob gavharidir. O`simlikning ildizi tarkibida 1,7-3,3 %, poyasida 0,23-3,57 %, bargida 1,07-4,96 %, gulida 2,82 % va urug`ida 2,38-6,60 % gacha alkaloidlar bo`ladi. Alkaloidlar yig`indisidan garmalin, garmin, (banisterin), garmalol, peganin (vazitsin), pegamin, peganol, dezoksipeganin, peganidin va boshqa alkaloidlar ajratib olingan. Alkaloidlar yig`indisining 50-95 % ini (urug`ida) garmalin, 67-74 % ini (ildizida) garmin, 78 % ini (yer ustki qismida) peganin tashkil etadi. Urug`ida alkaloidlardan tashqari 14,23 % yog` va qizil rang beruvchi pigmentlar uchraydi.

Isiriq maydalab tuyib yeyilganda, tutqanoq, qaltiroq, jinnilik, parishonxotirlik va boshqa sovuq mijozga aloqador bosh hamda asab xastaliklariga davo bo`lish xususiyatiga egadir.

Bundan tashqari, semizo`t, sunbul, qoqi asabni, asabda yuz beradigan har qanday kasallikni, uyqusizlikni, iztirob, tashvish va yurak siqilishini yo`qotadi. Shuningdek, asab kasaliga yo`liqqan bemor yong`oq bargini qaynatib, 300 gramm suvini badanlariga surtsa shifo topadi.

Yuqorida keltirilgan o`simlik va oziq moddalarni qo`llash asab kasalliklari bilan xastalangan bemorlarni kompleks davolash muolajalarini to`ldiradi va yaxshilaydi. Bu ne`matlardan foydalanishda albatta shifokor bilan ham maslahatlashish kerak



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Холматов Х., Хабибов З. Фармокогнозия. -Т.: Медицина, 1967-й 69-367 б.
2. Холматов Х.Х, Ахмедов Ў.А. Фармокогнозия. -Т.: Абу Али ибн Сино 1995-й 101-565 б.
3. Машковский М.Д. Лекарственные средства. М.: Медицина, 1986. 39-98- б
4. Ergashev Sh. Tabiatning o`zi tabib. -Т.: Abu Ali ibn Sino, 2003. -176- 177 b.